

PAMIDOR O'SIMLIGINING ZAMBURUG'LAR QO'ZG'ATADIGAN KASALLIKLARI VA ULARGA QARSHI KURASHISH CHORALARI

*To'raboyev Mirzaraxmat Baxtiyor o'g'li
Jumanaliyeva Muhlisa Faxriddin qizi*

Annotatsiya: O'simliklar dunyosining har bir turi vakillarida bo'lganidek rezavor sifatida xalqimiz sevib iste'mol qiladigan pomidor ham turli xil kasalliklarga chalinadi. Hozirda pomidorda uchraydigan fuzarioz va fitoftoroz kasalliklariga qarshi kurashish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Ushbu maqola fuzarioz va fitoftoroz kasalliklariga qarshi kurashish usullari hamda bu kasalliklar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Fitoftoroz, fuzarioz, kasalliklar belgilari, kurashish choralari.

Pomidorning fuzarioz so'lish ham issiqxonalarda ham ochiq dalalarda uchraydi. Zararlangan urug' barg va yosh nihollar butunlay chirib ketadi. Kasallikni gifomitsetlar zamburug'i *Fusarium oxysporum f. Lycopersici* qo'zg'atadi. U pomidordan boshqa ekinlarni zararlamaydi. Dunyoning barcha mamlakatlarida fuzarioz vilt vertitsilyoz so'lishga nisbatan juda keng tarqalgan. (Fletcher 1987)

Vilt pomidorning pastki barglari, ko'pincha bir tomonda sarg'ayishi va o'simlikning so'lg'in bo'lib qolishidan boshlanadi. So'lgan barglar quriydi, biroq tushmasdan novdalarda osilib qoladi. Novdalar ustida sariq chiziqlar paydo bo'ladi. Zararlangan o'simliklar so'lishdan oldin zaiflashadi va bo'yi juda past bo'lib qoladi. Pomidor so'lishining sababi-o'tkazuvchi to'qimalar zamburug' mitseliysi bilan to'lib qolishi hamda o'simlik zamburug' chiqargan toksinlari bilan zaharlanishidir. Poya qiya kesilsa o'tkazuvchi to'qimalar qo'ng'ir tus olgan kuchli dog'lanish kuzatiladi. Og'ir tuproqlarda kasallik juda tez tarqaladi. Zamburug' issiqsevar organizm. O'simliklarni tuproq harorati 21-33 C⁰ optimum 28 C⁰ bo'lganida kuchli zararlaydi. Ortiqcha azotli o'g'it berish kasallikni yanada kuchaytiradi. Qo'zg'atuvchi o'simlik to'qimalariga tomirlari orqali kiradi. Zararlangan pomidor o'simliklarning ildiz bo'g'zida pushti mog'or ko'rinishi mumkin. Zamburug'ning xlomidosporalari tuproqda 11 yilgacha saqlanishi mumkin. Qo'zg'atuvchi urug' orqali ham o'tishi mumkin. *Fusarium oxysporum* zamburug'ining 76 tadan ko'proq maxsus formalari mavjud bo'lib, ularning mikroskopik belgilari bir hil, ular faqat o'zlari moslashgan o'simlik tur va navlarni zararlashi mumkin.

Kurashish choralari: Tuproqni bug' yordamida zararsizlantirish, tuproqqa chidamli navlari yoki payvand qilingan pomidor ko'chatlarini ekish tavsiya qilinadi. Urug'likni samarali fungitsid bilan dorilash, kasal ko'chat va o'simliklarni olib tashlash.

Biologik kurash choralari sifatida trixodermin preparatini qo'llash ham yaxshi natijalar beradi.

O'simlikni o'suv davrida bist sus.k 2.5-4 l/ga; fundazol 50% n.kuk. 0.5-0.6 l/ga; sporagin s.e.k. 0.2 l/ga fungitsidlardan birini purkash.

Pamidor fitoftorozini Phytophthora infenstans oomitset zamburug'i qo'zg'atadi. Keyingi yillarda pomidor fitoftorozi O'zbekiston issiqxonalarida keng tarqalgan kasallikka aylangan.

Fitoftoroz salqin va nam (yomg'irli va shabnamli) ob-havoda pomidor mevalarining 60-70% zararlashi mumkin. Kasallik barg, poya va ayniqsa mevalarda kuchli zararlaydi. Barglarning ustki tomonida uning chetlari bo'ylab joylashuvchi qo'ng'ir dog'lar, ostki tomonida esa g'ubor hosil bo'ladi. Chirish ayniqsa mevalarning pishish davrida, tashish va saqlashda kuchli rivojlanadi. Potogen mevalarda spora hosil qilmaydi. Kasallik o'simlik gullash paytida boshlanadi. Barglari pastga egiladi va barglari osilib qoladi. Barglarning ustiga qaynoq suv quyganga o'xshash dog'lar paydo bo'ladi. Yuqori namlik va iliq haroratda burglar butunlay chirishi va deyarli barcha o'simliklar nobud bo'lishi mumkin. To'pgullar zararlanganda gulbandlar va gulkosachabarglar qorayadi va qurib qoladi. Zararlangan novdalarda uzunchoq yoki o'zgaruvchan shakilli qizg'ish qo'ng'ir dog'lar rivojlanadi. Novda va barglar kuyganga o'xshab qoladi. Mevalar ustida qattiq qo'ng'ir tusli usti biroz g'adir-budir dog'lar va yaralar paydo bo'ladi. Zamburug' ochiq dalalarda, tuproq ustida, o'simlik qoldiqlarida va ituzumdoshlar oilasiga mansub begona o'tlarda qishlaydi.

Yuqori haroratda kasallik alomatlari yuzaga chiqmasligi mumkin. Ular ochiq dalaga ko'chirib ekilgach fitoftoroz o'choqlarini paydo qiladi.

Agrotexnik tadbirlar: chidamli navlarni ekish, jo'yaklarni baland olish, almashlab ekish, oldingi yili pomidor yoki kartoshka ekilgan dalalarga ekmaslik, o'simlik qoldiqlarini daladan chiqarib tashlash.

Kimyoviy usul: pomidor o'simliklarida profilaktika uchun fungitsid (mankotsebn alohida yoki metalaksil bilan aralashmasini ridomil gold MTS 68% s.d.g 2.5 l/ga ; kvadris 25% sus.k. 0.8l/ga; kurzat r.n.kuk 2-2.5 l/gam is xloroksidi 0.4%, bordo suyuqligini 1% fungitsidlarini purkash tavsiya qilinadi.

Xulosa. Ekilgan ekinlarimizdan hosillarni yig'ib olishda faqatgina mo'l hosil olishga emas, balki sifatli va sof toza mahsulotlarni olishga katta e'tibor qaratishimiz kerak. Iloji boricha kimyoviy preparatlardan kamroq foydalanishimiz kerak, sababi kimyoviy moddalar nafaqat o'simlikka balki odam organizmiga ham katta tasir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sheraliyev A "Umumiy va qishloq xo'jaligi fitopotologiyasi" T. "Talqin" (2008)
2. Abdulkarimov D T " ранний томат " Toshkent 1987
3. Болотский А. С "Томаты" Харьков 2002-С 214-247
4. Agrobank tasvir nashriyot 2022
5. Аюпов Р. Х "pomidorlarni yetishtirish va qayta ishlash" Iqtisod-Moliya 2007 y
6. Agrokontinent kompaniyasi 2016 yil
7. Mojateplisa. Sayti
8. Wikipediya.ru sayti
9. AgroFlora.ru sayti